

SINONIMLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MUAMMOSI

Kholmurodova Flyura Ulugbekovna

Faculty of Foreign philology

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

xolmurodovaflyura@gmail.com

Annotation: This article is dedicated to the issues related to synonyms in the process of translating from English to Uzbek and the ways to overcome them.

Keywords: Literal translation, word meaning, stylistic aspect, lexical meaning, context, phrase, text content, idiomatic expression.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам, связанным с синонимами в процессе перевода с английского на узбекский язык и их устранению.

Ключевые слова: Дословный перевод, значение слова, стилистический аспект, лексическое значение, контекст, словосочетание, содержание текста, фразеологическое выражение.

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida sinonimlar bilan bog'liq bo'ladigan muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: So'zma-so'z tarjima, so'z ma'nosi, uslubiy jihat, lug'aviy ma'no, kontekst, so'z birikmasi, matn mazmuni, frazeologik ibora.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayoni va raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanishi, ilmiy yangiliklarning doimiy ravishda paydo bo'lishi insoniyatning leksik boyligida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaryapti. Jumladan, turkum sintezining keng tarqalishi, shakldosh so'zlarning ko'payishi, tilda polifunksional so'zlar sonining ortishi va nutqda konversiya hodisasining tez-tez uchrashi kuzatilmoqda. Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, sinonim (ma'nodosh) so'zlar to'plamining o'ziga xos o'zgarishlarni boshdan kechirishiga olib kelmoqda.

Sinonimiya - bu til birliklari o'rtasidagi semantik munosabatlarning bir turi bo'lib, leksik birliklar ma'nolarining bir-biriga to'liq (bu kamdan-kam hollarda uchraydi) yoki qisman mos kelishidan iboratdir.

Sinonimiya 1) tilning leksik, frazeologik, grammatik va so'z yasash tizimlariga xosdir; 2) umumjahon hodisa (til universaliyasi) hisoblanadi; 3) eng muhim paradigmatic munosabatlardan biridir. Shuning uchun dunyo tilshunosligida

sinonimiya hodisasining o'rganilishi davr nuqtai nazaridan ham dolzarb masala hisoblanadi[1.353].

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda soʻzning toʻgʻri tanlovi muhim ahamiyatga ega. Ayrim jummalarni soʻzma-soʻz tarjima qilish mumkin boʻlsa, baʼzilarini kontekstga qarab qayta ishlab tarjima qilish talab etiladi. Bunday hollarda tarjimon matn mazmunini toʻgʻri yetkazish uchun sinonimlarni mohirona qoʻllay bilishi zarur. Tarjimaning sifatini taʼminlashda har bir soʻzning maʼnosi va uslubiy jihatini hisobga olish muhimdir. Tarjimon sinonimlarni kontekstga mos ravishda tanlasa, maʼlumotlar aniq va tushunarli boʻladi.

Har doim ham bir soʻzning birlamchi lugʻaviy maʼnosi boshqa tilga toʻgʻridan-toʻgʻri oʻgirilavermaydi. Masalan, "Oxford Dictionary" kitobiga koʻra ingliz tilidagi "to make a decision" iborasi oʻzbek tilida "qaror qabul qilish" deb tarjima qilinadi. Agar ushbu iborani soʻzma-soʻz "qaror qilish" shaklida oʻgirsak, u tushinarsiz koʻrinishi va maʼno aniq ifodalanmasligi mumkin. Shuning uchun sinonimlarni qoʻllashda matnning uslubi va mantiqiy mazmunini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilida aksariyat soʻzlarning bir nechta maʼnosi mavjud boʻlib, bu tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Xato sinonim tanlovi matn mazmunini notoʻgʻri tushunishga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, iboralar va soʻz birikmalarini soʻzma-soʻz tarjima qilish qiyin. Notoʻgʻri tarjima matnning oʻqilishini murakkablashtiradi. Masalan, "Dictionary for library and information science"ga koʻra "to give up" iborasini "berish" deb tarjima qilish notoʻgʻri, negaki uning mazmuni "voz kechmoq" yoki "taslim boʻlmoq" kabi maʼnolarni anglatadi. Shuning uchun tarjima jarayonida lugʻaviy ekvivalentlardan tashqari, uslub va konnotativ (qoʻshimcha) maʼnolar ham eʼtiborga olinishi lozim. Misol uchun, ingliz tilidagi "large" va "big" soʻzlari bir-biriga yaqin maʼnoga ega boʻlsa-da, qoʻllanilish jihatidan farq qiladi. "Big mistake" ifodasi kundalik soʻzlashuvda ishlatilsa, "large mistake" odatda rasmiyroq ohangda qoʻllaniladi. Ikkalasini ham oʻzbek tiliga "katta xato" deb tarjima qilish mumkin, ammo ularning stilistik farqini toʻgʻri anglash matn mazmunining aniqligini taʼminlaydi. Xuddi shuningdek, "huge" va "enormous" soʻzlari ham oʻz kontekstiga qarab turli taassurot uygʻotishi mumkin. Tarjimada bunday farqlarga eʼtibor bermaslik uslubiy moslashuvga putur yetkazadi.

Oʻzbek tili ham sinonimlarga boy til boʻlgani uchun ekvivalent tanlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi "dark" soʻzi turli kontekstlarda bir nechta sinonimga ega. "Longman Dictionary" maʼlumotlariga koʻra, bu soʻzning toʻrtta asosiy maʼnosi mavjud:

O'zbek tilidagi ma'nosi	Ingliz tilidagi sinonimlar	Misol
I. I. Qorong'u	Dim, shadowy, gloomy	The room was dark, making it hard to see.
I. II. Yomon	Evil, sinister, wicked	He has a dark sense of humour.
I. III. Sirli	Mysterious, enigmatic, obscure	There is a dark aura around her past.
Ruhiy tushkunlik [“Longman dictionary” – p-290]	Depressed, melancholic	She was in a dark state.

Yuqoridagi misollarda so'zning qaysi ma'noda ishlatilganini aniqlash nihoyatda muhim. Aks holda, noto'g'ri sinonim tanlovi matnning ma'nosini buzishi yoki noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Tarjima jarayonida sinonimlarning to'g'ri tanlovi mazmunning aniqligi va uslubiy to'g'riligini ta'minlaydi.

So'z birikmalari va frazeologizmlar tarjimasida sinonimlarning o'rni juda katta. Ma'lumki, iboralar bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi, balki ularning muqobil sinonimlari qo'llaniladi va to'g'ri tarjima qilish sinonimlarni puxta bilishga uzviy bog'liqdir. Masalan, ingliz tilida “spill the beans” [dictionary.cambridge.org] iborasani o'zbek tilida “loviyalarni to'kib yubormoq” deb tarjima qilinsa mazmun butunlay o'zgaradi, aslida esa “Sirni fosh qilish” deyilsa to'g'ri bo'ladi. Chunki bu ibora bilmasdan yashirin gapni aytib qo'yishni anglatadi.

Frazologik birlik (so'z birikmalari) ham aslida qotib qolgan, ya'ni yaxlit bir ma'no anglatadi. “run out of the time” birikmasini “vaqtdan chiqimoq” deyilsa, mantiqsiz bolib qoladi, negaki bu birikma “tugamoq”, nimaningdir qolmay qolishi, degani. Shunday ekan, “vaqtdan chiqish” emas, balki “vaqtimiz tugadi” bo'lishi lozim ekan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada sinonimlarning to'g'ri qo'llanilishi mazmunni aniq va uslubiy jihatdan to'g'ri yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir tilning o'ziga xos leksik boyligi va uslubi borligi sababli, sinonimlar tanlashda nafaqat lug'aviy ekvivalent, balki kontekst, uslub va qo'shimcha ma'nolar ham hisobga olinishi lozim. So'zlarni so'zma-so'z tarjima qilish har doim ham to'g'ri natija bermasligi tufayli iboralar, frazeologizmlar va so'z birikmalari tarjimasida sinonimlarni mohirona qo'llash alohida ahamiyatga ega.

Tarjimonning mahorati sinonimlar orqali mazmunning nozik jihatlarini aks ettirishda ko'rinadi. To'g'ri tanlangan sinonimlar matnni tushunarli, ravon va stilistik jihatdan muvozanatli qiladi. Xato sinonim qo'llash esa mantiqiy xatolarga, tushunmovchiliklarga olib keladi va matnning sifatiga putur yetkazadi. Shunday ekan, tarjima jarayonida sinonimlarni puxta tahlil qilish, kontekstni chuqur tushunish va uslubni saqlash nihoyatda muhimdir. Natijada, mazmun va uslubning uyg'unligi ta'minlanib, sifatli va tushunarli tarjima yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 1. Abjalilova M.A. O'zbek tilidagi sinonimlar tasnifi. Available from: https://www.researchgate.net/publication/379754263_O'zbek_tilidagi_sinonimlar_tasnifi [accessed Nov 09 2024].
2. 2. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T., 1975.
3. 3. Paulo Coelho. The Alchemist. HarperCollins Publishers, 2002, p. 160
4. 4. Smith J. Translation and its impact on Language. Oxford University Press. 2020.
5. 5. Johnson A. The role of synonyms in translation. Journal of language studies. P – 12(3), 45-60
6. 6. Language Institute. Understanding Synonyms. Language Institute Website: <https://www.languageinstitute.org/synonyms>. 2021.
7. 7. Joan M Reit. Dictionary for library and information science. 2004.
8. 8. The Concise Oxford dictionary of current English Longman Dictionary P – 290.
9. 9. Longman Dictionary of Contemporary English. 2014